



INGLIZ FILOLOGIYASI FANINING MOHIYATI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI

Maxmudova Sabina Avazjonovna

Xorijiy tillar kafedrası dotsenti,

Zarmed Universiteti

Alimova Jasmina Alisherovna

Zarmed Universiteti, 2-kurs talabasi

Tel: +998 (88) 539-77-22

E-mail: jasminaliwerovna@gmail.com

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz filologiyasi fanining bugungi globallashuv davridagi o‘rni, uning nazariy asoslari va zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari yoritilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz filologiyasining til, adabiyot va madaniyatni o‘rganishdagi ahamiyatini, shuningdek, yangi ilmiy metodlar va amaliy yo‘nalishlar bilan boyib borayotgan jihatlarini aniqlashdan iborat. Maqolada ingliz tiliga bo‘lgan ehtiyojning ortishi, bu yo‘nalishga ijtimoiy va ilmiy qiziqish kuchayib borayotgani hamda filolog mutaxassislarning jamiyatdagi roli ta’kidlanadi.*

***Kalit so‘zlar:** ingliz filologiyasi, lingvistika, adabiyotshunoslik, zamonaviy yondashuvlar, kompetensiya.*

KIRISH QISM.

Globallashuv sharoitida ingliz filologiyasi faniga bo‘lgan e’tibor sezilarli darajada oshdi. Chunki ingliz tili hozirgi kunda nafaqat xalqaro aloqa, balki diplomatiya, ta’lim, biznes, ilm-fan va texnologiyalarning asosiy vositasiga aylangan. Shu bilan birga, ingliz filologiyasi tilning tuzilishi, adabiy jarayonlar, madaniyat va ijtimoiy omillarni birgalikda o‘rganadigan murakkab ilmiy yo‘nalishdir.

Ushbu sohaning dolzarbligi shundaki, ingliz tilini chuqur o‘rganish bilan birga, talabalar adabiy tafakkur, madaniy idrok, tahlil qilish, izlanish va ijtimoiy kommunikatsiya ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Filologiyaning rivoji esa zamonaviy ilmiy metodlar — korpus lingvistika, kognitiv yondashuvlar, tarjima nazariyasi orqali yanada boyimoqda.

Ingliz tilshunosligining ilmiy mohiyati

Ingliz tilining fonetikasi, morfologiyasi, sintaksisi va semantikasi uni chuqur o‘rganishning asosiy bo‘limlaridir. Bu soha nafaqat grammatik tizimni tushuntiradi, balki real nutqda ma’no qanday shakllanishi, tilning amaliy qo‘llanishi va kontekst bilan bog‘liqligini ham tahlil qiladi.

G. Yule (2010) qayd etgani kabi, tilshunoslik kommunikatsiya jarayonining barcha bosqichlarini o‘rganadi, bu esa filologning lingvokulturniy kompetensiyasini oshiradi Adabiyotshunoslikning o‘rni

Adabiyot ingliz filologiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Shekspir, Bayron, Dikens, Joys, Woolf kabi adiblar ijodi orqali jamiyatning ruhiyati, axloqiy qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari yoritilgan.

M.H. Abrams (1999) adabiyot tahlili orqali talabalarda tanqidiy fikrlash va madaniyatlararo tafakkur rivojlanishini ta’kidlaydi. Shuning uchun adabiyotshunoslik ingliz filologiyasi talabasining dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy bo‘limlardan biridir.

Zamonaviy ilmiy yo‘nalishlar. Bugungi ingliz filologiyasi an’anaviy ilmiy yondashuvlar bilan cheklanib qolmay, quyidagi innovatsion yo‘nalishlar bilan boyigan: • Korpus lingvistika

Matnlar bazasi orqali tilning real qo‘llanilishini o‘rganadi. McEnery & Hardie (2012) korpus tahlilining zamonaviy lingvistika uchun asosiy vositalardan biriga aylanganini ta’kidlaydi.

• Kognitiv lingvistika Til va tafakkur bog‘liqligini o‘rganadi. Ma’noning ongda Global kommunikatsiya kuchaygan sari tarjima sohasi ham kengaymoqda. Filologlar madaniy kontekst, pragmatik moslik va ma’noning to‘g‘ri yetkazilishiga katta e’tibor qaratadilar. Ingliz filologiyasining amaliy ahamiyati



Ingliz filologiyasi bitiruvchilari o‘qituvchilik, tarjimonlik, jurnalistika, kontent aratish, SMM, PR, marketing, xalqaro tashkilotlar, IT sohasi va turizmga faoliyat yuritishlari mumkin. Zamonaviy mehnat bozorida ingliz tilini mukammal bilish — asosiy talab qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, Ingliz filologiyasi bugungi global jamiyatda muhim fanlardan biridir. Tilshunoslik, adabiyotshunoslik va zamonaviy ilmiy metodlar birgalikda talabalarda chuqur til idrokini, tahliliy fikrni va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi. Mavzuning amaliy ahamiyati shundaki, ingliz filologiyasi mutaxassislari ko‘plab sohalarda talabgir va raqobatbardosh hisoblanadi. Shunday ekan, ingliz filologiyasi nafaqat akademik, balki strategik ahamiyatga ega yo‘nalishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Crystal, D. English as a Global Language. Cambridge University Press, 2003.
2. Graddol, D. English Next. British Council, 2006.
3. Yule, G. The Study of Language. Cambridge University Press, 2010.
4. Abrams, M. H. A Glossary of Literary Terms. Heinle & Heinle, 1999.
5. McEnery, T., Hardie, A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. Cambridge University Press, 2012.
6. Makhmudova, S.A. (2023). Peculiarities of Representation... Open Access Repository.
- ?? Ibayev, A. J. Comparative analysis of the derivation of simple sentences in English and Uzbek. International Journal for Research in Applied Science & Engineering Technology (IJRASET) ISSN, 2321-9653.
- ?? Jurabekovich, I. A., & Deberdeeva, E. E. (2026). Stylistic Function and Structural-Semantic Features of Occasional Phraseological Units in Speech. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 7(2), 1-8.
- ?? Jo‘rabekovich, I. A. (2026). THE MOST EFFECTIVE WAYS TO DEVELOP READING COMPREHENSION SKILLS IN ENGLISH LANGUAGE LEARNERS. Shokh Articles Library, 1(1).
- ¹ Jo‘rabekovich, I. A., & Isroilovna, I. S. (2025). TRANSFORMING TRADITIONAL TEACHING METHODS: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES. YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(7), 953-958.
- ¹ IBAYEV, A. INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING DERIVATSION POTENTIALI. FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA, 20.
- ¹ Ibaev, A. (2020). K voprosu polucheniya sravnitelnyh soedineniy. Ученый XXI века, (12-1 (71)), 101-103.
- ¹ Mirzoyev, J. (2022). HOFIZ SHEROZIY G‘AZALIDAGI NOZIK JIHATLARINING TARJIMADA BERILISHI.(FORS-INGLIZ TILLARI MISOLIDA). Ученый XXI века, (5-1 (86)), 83-85.
- ¹ Мирзоев, Ж. (2024). Классификация фразеологизмов с компонентом «Глаза» и их семантические свойства (на примере повести С. Айни «Старая школа»). Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2(1), 6-12.
- ¹ Мирзоев, Ж. (2024). Лексико-семантическая особенность перевода терминов. Переводоведение и лингвистика в эпоху цифровых технологий: изучение передовых подходов, 1(1), 137-139.
- ¹ Aslonov, S. S. (2020). O‘zbek Va Ingliz Tilida Jins Mazmunini Bildiruvchi So‘zlar Tahlili. Студенческий вестник, (16-10), 55-58.
- ¹ Shahram, A., Umida, K., & Zarina, R. (2020). Information technology's role in the study of foreign languages. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(3), 183-185.
18. Shahram, A. (2025, December). AFGHAN-AMERICAN DIASPORA LITERATURE AND ITS DISTINCTIVE CHARACTERISTICS (BASED ON THE WORKS OF KHALED HOSSEINI). In CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY (Vol. 1, No. 9, pp. 701-704).